

**Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Исломшунослик ва ислом цивилизациясини ўрганиш
ICESCO кафедраси**

**«ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ИСЛОМНИ
ТУШУНИШ МУАММОЛАРИ»**

**мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция
материаллари**

ТЎПЛАМИ

II-III



**“HIROL MEDIA” НАШРИЁТИ
ТОШКЕНТ - 2023**

УЎК: 28-316.32(042)
КБК: 83.38
Г 53

Глобллашув жараёнида исломни тушуниш муаммолари: халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. II-III./тўплам/ масъул муҳаррирлар З.М.Исломов, М.М.Ҳайдаров. – Тошкент: HILOL MEDIA, - 264 б.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг “Ўзбекистон Республикасида 2023 йилда халқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник анжуманлар режаси тўғрисида”ги 2023 йил 2 майдаги 118-сон буйруғи, Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича қўмитасининг 2023 йил 8 майдаги 03-03/3487- хати ва Ўзбекистон халқаро ислом академияси ректорининг 2023 йил 11 майдаги “2023 йил республика ва халқаро миқёсдаги илмий-амалий анжуманларни таъкил этиши ва ўтказиши тўғрисида”ги 01-65-сонли буйруғи ижросини таъминлаш мақсадида 2023 йил 27 сентябрда Ўзбекистон халқаро ислом академиясида “Глобллашув жараёнида исломни тушуниш муаммолари” мавзусида халқаро илмий-амалий анжуман ўтказилди.

Мазкур тўплам ушбу анжуман материалларини ўз ичига олган.

Масъул муҳаррирлар

Фил.ф.д., проф. З.М.Исломов, PhD М.М.Ҳайдаров

Таҳрир хайъати аъзолари:

ю.ф.д., проф. Н.Юсупова, т.ф.н., доц. Д.Раҳимжонов, т.ф.н., доц. М.Исмоилов, PhD доц. Ҳ.Сағдиев, т.ф.н., доц. Д.Муратов, ўқитувчи А.Қамбаров, PhD Ў.Полвонов, PhD Н.Тўраев, PhD С.Саиджалолов, PhD М.Агзамова, PhD Н.Ҳакимова, PhD Н.Тўйчиева

Тузувчи:

PhD С.Саиджалолов

Тўпламга киритилган материалларда келтирилган факт, рақам ва маълумотлар учун муаллифларнинг шахсан ўзлари масъулдирлар.

Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича қўмитасининг 30.10.2023 йилдаги 03-07/8044-сон хулосасига асосан нашрга тайёрланди.

ISBN 978-9910-9458-7-8

© Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 2023
© “Hilol Media”, 2023

so'zlagan. Ya'ni muftiy bir qancha musulmon mamlakatlari tillarini ham yaxshi bilgan va o'ziga xos yetuk darajadagi til bilish salohiyati sohibi ham bo'lgan.

Muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon ilm va ma'rifatning ko'plab qirralarini egallagan edi. Shular bilan chambarchas holda muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon she'riyatning ham ixlosmandi bo'lib, Navoiy, Jomiy, Xoja Hofiz, Bedil va Fazliy kabi shoirlarning she'rlarini o'qib-o'rgangan va ularning asarlari kitob javonidan munosib o'rin olgan edi. Muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon o'zining ham she'rlar bitgan daftarlari bo'lgan. Bu daftarlarda o'zining chuqur mazmuni bilan o'qiguvchini o'ziga rom qiluvchi g'azal va ruboiylar bor edi. Shoir sifatida "Futuhiy" tahlusi bilan she'rlar bitgan.

Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon kitobning haqiqiy shaydosi edi. Bo'sh vaqtida mutolaa va tarjima bilan band bo'lar, bir qancha asarlarni arab va fors tilidan tarjima qilgan. Uning tarjimalarida musulmon olami Renessansining yorqin vakili, qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning asarlari alohida o'rin olgan edi. Muftiy Ibn Sinoning taomlarning foyda va zararlari hamda ashyolar ta'rifiga bag'ishlangan asarini nashr ettirgan. Boshqa bir qancha asarlarini tarjimasini oxiriga yetkazishga esa muftiyning umri yetmadi.

Muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon yuqoridagilar bilan birga ajoyib diplomatik salohiyat va kelishuv mahorati sohibi ham edi. Chunki ateizm tuzumi hukmron bo'lib turgan, Islom tazyiqqa uchragan, Islom aqidalari va unga ergashganlar ta'qib qilingan bir davrda endigini islohotlar bo'layotgan va o'ziga xos o'tish davri edi. Muftiy o'z vaz'lari bilan ko'plab insonlarni qalbiga Islom ma'rifati joylanishiga vasila bo'ldi. Bu islarni amalga oshirish murakkab davrda katta jasorat, yuqori darajadagi keng dunyoqarash va farosatni talab etardi. Bu insoniy sababiyatlar va Allohning madadi bilan muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon tarixga o'z ismini muxrladi, insonlar qalbidan o'rin oldi. Yurtimizdagi ateizm hukronligi davridagi Islom uyg'onishining yirik namoyondasi bo'lib qoldi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi ikkinchi muftiysi, alloma, shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon 1982-yil bu dunyoni tark etdi. Undan so'ng bir muddat ishini farzandi Shamsuddinxon ibn Ziyovuddinxon munosib davom ettirdi. Sulola a'zolari Toshkent shahridagi Hazrati imom majmuasida abadiy qo'nim topishgan. Alloh ulardan rozi bo'lsin, dini Islom va millat uchun qilgan xizmatlari ajrini ko'paytirib bersin.

Hozirgi kunda yurtimizda ilm olishga e'tibor va rag'bat kuchaygan. Shaxsan davlat rahbari bu ishlarning boshida turibdi va ajdodlar merosini o'rganish, tahlil qilishga e'tibor bermoqda hamda bu ulkan ishlarga barcha ilm ahlini chorlamogda desak adashmagan bo'lamiz. Fikrlarimizni Prezidentimiz Shahvkhat Mirziyoyevning quyidagi so'zlari bilan yakunlamogchimiz: "Biz hali yurtimizni, uning o'ziga xos tarixi, madaniyati, ulug' olimu ulamolarini, bebaho ma'naviy merosimizni to'liq o'rganganimiz yo'q".²¹²

Д.МУРАТОВ,

Ўзбекистон халқаро ислом академияси, доцент

ИБН МАНДАНИНГ ҲАДИС ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

Ҳадис илми тарихини ўрганиш жараёнида шуни кўриш мумкинки, ҳижрий учинчи ва тўртинчи асрдан кейин яшаган муҳаддислар ўзларидан олдинги олимларнинг асарларини шарҳлаш, мухтасар қилиш, қайта тартибга солиш, янгича усулда бошқа асарлар билан жамлаш ва бошқа услубларни қўллаган ҳолда ўз асарларини таълиф этганлар. Шу билан бирга кейинги даврларда яшаган муҳаддислар аввалги олимларнинг асарларини ўз шоғирдларига ривоят қилиш ишлари билан ҳам шуғулланганлар.

²¹² Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги - расмий хабарлар, тезкор янгиликлар, таҳлилий-танқидий материаллар, конун ҳужжатлари, фото ва видеорепортажлар

<https://uza.uz/oz/posts/vatanimiz-taqdiri-va-kelajagi-yo-lida-yanada-hamjihat-bo-lib-15-06-2017>

Ислом тарихида ўзининг муҳим асарлари билан из қолдирган ва ўзидан аввалги муҳаддиснинг ишларини ривоят қилиб кетган олим Ибн Манда ҳисобланади. Олимнинг тўлиқ исми Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исҳоқ ибн Муҳаммад ибн Яҳё ибн Иброҳим ибн Валид ибн Манда ибн Бутта ибн Истиндор ибн Жихор Бухт²¹³ бўлиб, Ибн Манда номи билан танилган. Олим 310/922 йилда ҳозирги Эрон ҳудудидаги Исфаҳон шаҳрида туғилган. У муҳаддис, фақиҳ, муаррих ва мутакаллимдир. Имом Заҳабий ва имом Суютий мазкур олимни муҳаддисларнинг ўнинчи табақасида эканини айтиб ўтишган.

Олимнинг отаси Абу Яъқуб Исҳоқ ибн Муҳаммад ибн Яҳё ибн Манда ҳам Исфаҳонда машҳур муҳаддислардан бўлган. Шунинг учун Ибн Манда эса ёшлик чоғларидан отасининг ёрдами билан илмий муҳитда улғайиб, қалбида суннатга муҳаббат эрта пайдо бўлган. Илм олишни Қуръони каримни ёдлаганидан сўнг 8 ёшидан бошлаган. Шу билан бирга ҳадис эшитишни бошлаган. Отаси унинг илм мажлисларида кўпроқ қатнашишига эътибор қаратган.

Исфаҳон ўша даврда ўзининг олимлари билан танилган жой бўлган. Ибн Манда Исфаҳондаги устозлардан таълим олиб бўлгандан сўнг, Нишопурда Абу Ҳомид ибн Билал, Муҳаммад ибн Ҳусайн Қаттон, Абу Аббос Асом ва бошқалардан таълим олган. Шунингдек, Ирок, Шом, Миср, Макка, Мадина, Байтул Макдис, Сарахс, Марв, Триполи, Тунис, Ғазо, Қайсарийя, Байрутга борган²¹⁴.

Ибн Манда кўплаб шаҳарларни илм талабида айланиб чиққан. Биринчи бўлиб 19 ёшида Нишопурга бориш билан ўз илмий сафарларини бошлаган. Манбаларда ўша ерда 500 000 ҳадис эшитгани айтилади. Имом Заҳабий унинг сафарлари борасида: «Ибн Манда ўз сафарларида кўп инсонлардан ҳадис эшитган. У каби кўп сафар қилган инсонни кўрмаганман», деган фикрни билдирган. Бошқа олим Абу Бакр Аҳмад Ботирқоний у кишидан: «Шарқ ва Ғарбни икки марта айланиб чиққанман», деганини келтиради.

Муҳаддиснинг устозлари сони 1700 тага етади. Ижоза билан Абдурахмон ибн Абу Ҳотам, Абу Аббос ибн Ақда, Фазл ибн Хасибдан ривоят келтирган. Устозлари орасида Ҳайсама ибн Сулаймон, Ҳайсам ибн Кулайб Шоший, Абу Аҳмад Муҳаммад ибн Иброҳим Исфаҳоний, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Яъқуб ибн Юсуф Шайбоний, Абу Али Исмоил ибн Муҳаммад, Исмоил ибн Яъқуб Бағдодий, Муҳаммад ибн Иброҳим ибн Марвон, Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Юнус Абҳарий, Ҳисон ибн Муҳаммад Шофейй, Яҳё ибн Абдуллоҳ ибн Ҳорис Димашқий, Аҳмад ибн Сулаймон ибн Айюб ва бошқа олимлар бор²¹⁵.

Ибн Манданинг шогирдлари орасида кўзга кўринган имом даражасига етган олимлар ҳам жуда кўп. Ҳатто ундан ёшда ва санадда юқори бўлган ўз устозлари ҳам ҳадис ривоят қилганлар. Муҳаддисдан Тамон ибн Муҳаммад Розий, Аҳмад ибн Умар, Зиёд ибн Муҳаммад, ўғиллари Абдурахмон ибн Манда, Абу Амр Абдувахҳоб ибн Манда, Убайдуллоҳ ибн Манда, Исҳоқ ибн Манда, Ҳамза ибн Юсуф, Аҳмад ибн Фазл, Абу Саид Идрисий, Аҳмад ибн Фазллар олимдан ривоятлар келтиришган.

Ибн Манда борасида жуда кўплаб олимлар мактов сўзларини айтганлар. Жумладан, имом Заҳабий: «Абу Нуаймга Ибн Манда ҳақида гапирилганда: «У тоғларнинг бири эди», деган.

Шайх Ҳирот Абу Исмоил Ансорий: «Абу Абдуллоҳ ибн Манда замонасининг буюқларидан бири», деб айтган.

Имом Жаъфар ибн Муҳаммад Мустафий: «Абу Абдуллоҳ ибн Мандадан хотираси кучли инсонни кўрмадим. Ундан устозларининг сони ҳақида сўраганимда 5000 нафар деб кўрсатган», деган фикрни билдирган.

Имом Заҳабий шундай деган: «У кишидан хотирасиданда ва ишончли кишилардан ундан кўп ҳадис ривоят қилган киши бўлмаган».

Ибн Манданинг ўғли Абул Қосим Абдурахмон, отаси тўрт минг жуз, Маккада Абу Саид ибн Аъробийдан минг жуз, Тароблусда Ҳайсама ибн Сулаймондан минг жуз,

²¹³ Ибн Манда. Ал-Иймон / таҳқиқ др. Али ибн Муҳаммад. – Байрут: ар-Рисола, 1985. – Б. 22.

²¹⁴ Ибн Манда. Маърифа ас-саҳоба / таҳқиқ Омир Ҳасан Сабрий. – Абу Забий: ал-Жомеа, 2005. – Т. 1. – Б. 22.

²¹⁵ Ибн Манда. Муснад Иброҳим ибн Адҳам. Ар-РИёз: Мактаба ал-Қуръон, 1992. – Б. 7.

Нишопурда Асамдан минг жуз ва Бухорода Хайсам ибн Кулайб (Шоший)дан минг жуз нарса ёзиб олганини айтади.

Ибн Манданинг ҳадис илими бўйича «Маърифат ас-саҳоба», «Фатҳ ал-баб фи-л-куна ва-л-алқоб», «Тасмия ал-машойих», «ал-Асоми ва-л-куна», «Китаб ал-куна», «ан-Нақд ли муснад Аби Ҳанифа», «ат-Тарих», ақоид бўйича «Китаб ас-сифаат», «Китаб фи-н-нафс ва-р-рух», «ал-Имон», «Китаб ат-тавҳид» каби асарлари бор²¹⁶.

Мухаддис 395/1005 йилда Исфахонда вафот этган.

N.Z.SAYDULLAYEV

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, magistrant

SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF ASARLARINING O'LKA AHOLISINING ILMIY SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI O'RNI

Zaminimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar, turli xil sohalarda yangiliklarni kashf etgan olimlarga beshik bo'lgan diyordir. Imom Buxoriy, imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Abu Mansur Moturidiy, Abul Muin Nasafiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi buyuk ajdodlarimizning merosi ma'naviy boyligimiz asosini tashkil etadi. Ularning birlari hadis ilmida peshqadam zotlardan sanalsa, yana biri kalom ilmida tengsiz olimlardan hisoblangan. Boshqasi esa tabiiy va jug'rofiy ilmlarni puxta egallagan qomusiy allomalardan bo'lishgan.

Ana shunday zabardast siymolardan biri, islom ilmlarining deyarli barcha sohasida qalam tebratgan taniqli olim, shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf rahmatullohi alayhdir. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bir hadisi shariflarida: **“Alloh taolo ushbu ummatga har yuz yilda Uning dinini yangilaydigan bir odamni yuboradi”**, - deganlar. Hazrat rahimahulloh ham yuqoridagi hadisda zikr qilingan olimlardan edilar. Sababi u zot dinimizning mo'tabar manbalarini xalqqa sodda, xalqchil usul bilan ilmiy asarlari orqali yetkazdilar.

Shayx Muhammad Sodik Muxammad Yusuf 1952-yil 15-aprelda Andijon viloyatining Buloqboshi tumanida tavallud topgan. U o'rta maktabni tugatgach, 1970-yilda Buxoro shahridagi Mir Arab madrasasiga o'qishga kiradi. 1971-yilda Toshkent islom instituti ochilganida, ushbu dargohda ilm tahsilini davom ettiradi. 1975-yili institutni tamomlab, “Sovet Sharqi musulmonlari” jurnaliga ishga kiradi. O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasi yo'llanmasi bilan 1976-1980-yillar oralig'ida Liviyada “Islomiy da'vat” universitetida o'qiydi. 1980-yildan diniy idoraning tashqi aloqalar bo'limida ish faoliyatini davom ettiradi hamda Toshkent islom institutida tafsir, hadis ilmi va arab tili fanidan dars beradi. Mazkur institutda dastlab prorektor, so'ngra 1987-1989-yillarda rektor bo'lib ishlaydi.

Ma'lumki, mustaqillikgacha milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilar edi. Sababi dunyo tamadduniga o'z aql zakovati ila o'chmas nom qoldirgan buyuk shaxslarni yetishtirib chiqargan bu zamin Sovet hukumati qo'l ostida edi. Mustabidlar madrasada ilm olishni, masjidida ibodat qilishni eskilik sarqiti deya atashardi. Bu g'oya sekinlik bilan xalq ongiga singdirila boshlandi va buning natijasida esa yosh avlod ham mana shu kayfiyatda tarbiyalanar edi.

Tashkilotlar va ta'lim dargohlarida aynan ramazon oyida barcha majburan suv ichirilib, bu buyruqdan bosh tortganlarga turli xil usulda jazolar qo'llanilgan. Diniy bayramlar bekor qilingan, islomning ko'hna tarixiga toshlar otilgan, milliy qadriyatlarimiz esa oyoqosti qilingan. Partiya a'zosi bo'lgan musulmonlar hattoki o'z oila a'zolarining ham janozasida qatnasha olmagan. Mana shunday og'ir vaziyat bo'lishga qaramasdan o'z jonini xatarga qo'yib millat dardida kuygan fidoiylar chiqib, dinimiz sofliğini diniy ta'limni saqlab qolishga harakat qildilar.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining muftiysi (1989-1993) etib saylandilar. Endi hazratning zimmasiga yanada

²¹⁶ Ибн Манда. Кито́б ат-тавҳид. Ал-Мадина: ал-Жомеа, 2007. – Т. 1. – Б. 24.